

## TA`LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH MAQSADIDA FAOL O`QITISH USULLARDAN FOYDALANISH

Mahmudova Gulnora Mannapovna, Irgasheva Dilrabo To'lqinjon qizi

Toshkent xalqaro ta`lim universiteti, Toshkent O`zbekiston

E-mail: [yayrahon@mail.ru](mailto:yayrahon@mail.ru), [irgasheva\\_dilrabo@mail.ru](mailto:irgasheva_dilrabo@mail.ru)

**Annotatsiya:** ta`lim jarayonida faol o`qitish usullardan foydalanish ta`lim sifatini oshirishga yordam berishi haqida fikr yuritilgan. Faol o`qitish usullar-ta`lim jarayonlarini o`zlashtirish maqsadida foydalaniladigan, aqliy va amaliy faoliyatga undaydigan, o`quvchilarning o`quv faoliyatini faollashtirishga ko`maklashadigan usullar hisoblanadi. Turli xil o`quv mashg`ulotlari faol o`qitish usullardan foydalanishning o`ziga xos xususiyatlari haqida bayon qilingan. Ta`lim jarayonida faol usullardan foydalanishning afzalliklari haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so`zlar:** *faol o`qitish usullari, qiziqarli o`yinlar, o`qituvchi va ta`lim oluvchilar, ta`lim sifati.*

## THE USE OF ACTIVE TEACHING METHODS IN ORDER TO IMPROVE THE EFFECTIVENESS OF EDUCATION

Makhmudova Gulnora Mannapovna, Irgasheva Dilrabo Tulkinjon kizi

Tashkent International University of Education, Tashkent, Uzbekistan

E-mail: [yayrahon@mail.ru](mailto:yayrahon@mail.ru), [irgasheva\\_dilrabo@mail.ru](mailto:irgasheva_dilrabo@mail.ru)

**Abstract.** the article discusses the main trends in the development and improvement of the credit-modular system of education in higher education in Uzbekistan. The author draws attention to the main tasks and aspects of this system and problematic trends in its further improvement, the main ways to resolve them.

**Keywords:** *training, education, credit, module, credit-modular system, higher education.*

Ta`lim samaradorligini oshirish, ta`lim sifatini yaxshilash, yangi ko`nikmalarni ta`lim oluvchilarda faol shakllantirish, ularni bilimini oshirish, ta`lim jarayonida o`quvchilarini dars faoliyatiga qiziqtirish maqsadida faol usullardan keng foydalanish hozirgi davrda keng targ`ib etilmoqda.

Yangi faol o`qitish usullardan foydalangan holda dars jarayonini tashkil qilish, yangi faol o`qitish usullarini yaratish va ularni mohiyatini tushunish hozirgi vaqtida ta`lim jarayonini tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega. Bu esa o`z navbatida dars jarayoniga ta`lim oluvchilarni jalb qilish, bilimlarini mustahkamlash uchun xizmat qilmoqda. Bu faol o`qitish usullarning o`ziga xosligi shundaki, ular nafaqat ta`lim oluvchilarga balki o`qituvchilarga ham dars o`tish faoliyatini takomillashtirishgan holda qiziqarli dars jarayononi tashkil qilishda yordam beradi. Ta`lim oluvchilarga dars jarayoniga befarq bo`lmaslik, fanlarga qiziqishlarini davomiyligini ta`minlash, yangi texnologiyalar bilan ishlashni o`rgatish, ta`lim oluvchilarning dars jarayonida faol ishtirot etishi, ularni yangi usullar bilan rag`batlantirish uchun xizmat qiladi.

Darhaqiqat, yangi o`qitish usullarini yaratish o`z navbatida qiyinchilik tug`dirishiga qaramasdan, keng ko`lamda foydalanish yuksak yutuqlarga erishish uchun poydevor bo`lib kelmoqda. Yangi keng qamrovli faol o`qitish usullaridan foydalangan holda darsni tashkil qilish, birinchi navbatda o`qituvchilarni faol harakat qilishga undaydi. Bu esa o`qituvchilarni bilim va ko`nikmalaridan faol tarzda foydalanishiga, ularni o`z ijodkorlik xususiyatini namoyish qilishiga turki bo`ladi. Dars faoliyatini qiziqarli tashkil etish maqsadida foydalaniladigan faol o`qitish usullariga aqliy faollikni oshirish maqsadida tashkil etiladigan aqliy hujum o`yinlari, bahs va munozaralar, yangi loyiha yaratish o`yinlari, muammoli vaziyatni yechimini topish, guruhga ajratilgan holda dars jarayonini tashkil qilish kabilar kiradi. Ushbu usullardan foydalanish vaqtida o`qituvchilar doim bir xil usullardan foydalanmasligi kerak. Chunki bu ta`lim oluvchilarni dars vaqtida zerikishiga sabab bo`ladi.

Yurtimizning kelajagi bo`lmish farzandlarimizni har tomonlama yetuk, bilimli, komil inson sifatida tarbiyalash birinchi o`rinda turishi kerakligini yodda tutgan holda harakat qilishimiz lozim. Bu esa ota-onalar va o`qituvchilarning eng oliv maqsadlaridan biri bo`lishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. О. В. Курбатова, Л. Б. Краснoperова, С. А. Солдатенко. Активные методы обучения: рекомендации по разработке и применению // Молодой ученый. — 2022. — № 16 (411). — С. 478-481.

